



THE DYNAMICS OF GLOBAL SOCIAL CHANGES AND THEIR IMPACT ON THE CULTURAL, IDEOLOGICAL AND INFORMATION SPHERES

Uktam Aliqulov

senior lecturer

Academy of the Ministry of Internal Affairs

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Globalization, democracy, integration, ideology, power, geopolitics, parliament, national values, migration, liberalism, cold war, concept, ecology, mass media, information sovereignty.

Received: 09.05.25

Accepted: 11.05.25

Published: 13.05.25

Abstract: This article analyzes systematic studies on social, economic, political and cultural changes associated with globalization, the effective use of globalization processes, the protection of national interests and the elimination of environmental problems, the positive and negative aspects of globalization in the field of ecology, changes in the fields of demography and migration, the ideological confrontation between the West and the East, democratic values, the impact of globalization on the activities of political parties and non-governmental organizations.

GLOBAL IJTIMOIIY O'ZGARISHLAR DINAMIKASI VA ULARNING MADANIY, MAFKURAVIY HAMDA AXBOROT SOHALARIGA TA'SIRI

O'ktam Aliqulov

katta o'qituvchi

IIV Akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Globallashuv, demokratiya, integratsiya, mafkura, hokimiyat, geosiyosat, parlament, milliy qadriyatlar, migratsiya, liberalizm, sovuq urush, konsepsiya, ekologiya, ommaviy axborot vositalari, axborot suvereniteti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar, globallashuv jarayonlaridan samarali foydalanish, milliy manfaatlarni himoya qilish va ekologik muammolarni bartaraf etish, globallashuvning ekologiya sohasida ham ijobiy va salbiy jihatlari, demografiya va migratsiya sohalaridagi o'zgarishlar, G'arb va Sharq o'rtasidagi mafkuraviy qarama-qarshilik demokratik qadriyatlar, globallashuvning

siyosiy partiyalar va nodavlat tashkilotlar faoliyatiga ta'siri to'g'risidagi tizimli ishlar tahlil qilingan.

ДИНАМИКА ГЛОБАЛЬНЫХ СОЦИАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА КУЛЬТУРНУЮ, ИДЕОЛОГИЧЕСКУЮ И ИНФОРМАЦИОННУЮ СФЕРЫ

Уктам Аликулов

старший преподаватель

Академия МВД

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Глобализация, демократия, интеграция, идеология, власть, геополитика, парламент, национальные ценности, миграция, либерализм, холодная война, концепция, экология, СМИ, информационный суверенитет.

Аннотация: В статье анализируются системные исследования социальных, экономических, политических и культурных изменений, связанных с глобализацией, эффективного использования процессов глобализации, защиты национальных интересов и устранения экологических проблем, позитивных и негативных сторон глобализации в сфере экологии, изменений в сферах демографии и миграции, идеологического противостояния Запада и Востока, демократических ценностей, а также влияния глобализации на деятельность политических партий и неправительственных организаций.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari butun dunyo miqyosida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni tezlashtirmoqda. Ushbu o'zgarishlar jamiyatning turli sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, yangicha fikrlash tarzini, kommunikatsiya shakllarini va boshqaruv mexanizmlarini shakllantirmoqda. Globallashuv bilan bog'liq ijtimoiy o'zgarishlar quyidagi omillar asosida yuzaga keladi. Texnologik rivojlanish raqamli texnologiyalar, internet va sun'iy intellekt jamiyatning barcha sohalariga kirib kelib, inson faoliyatining ko'plab jabhalarini o'zgartirmoqda. Iqtisodiy integratsiya xalqaro savdo, transmilliy korporatsiyalar va moliyaviy tizimlarning bog'liqligi natijasida dunyo iqtisodiyoti bir butun tizim sifatida shakllanmoqda. Geosiyosiy o'zgarishlar davlatlar va mintaqalar o'rtasidagi kuchlar muvozanati yangilanib, global darajada mafkuraviy kurashlar kuchaymoqda. Axborot oqimining erkinlashuvi – ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumotlar tezkorlik bilan tarqalmoqda, bu esa jamiyat ongi va dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Global ijtimoiy o'zgarishlar natijasida madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir ortib, milliy madaniyatlar transmilliy madaniy ta'sirlar ostida yangi qiyofa kasb etmoqda. Ushbu jarayon ikki tomonlama kechmoqda. G'arb madaniyatining dominant ta'siri xalqaro axborot maydoni asosan

G'arb davlatlari tomonidan boshqarilayotganligi sababli, ularning qadriyatlari, turmush tarzi va iste'mol madaniyati butun dunyoga keng tarqalmoqda. Mahalliy madaniyatlarning moslashuvi va transformatsiyasi ayrim milliy madaniyatlar globallashuvning ta'siriga moslashib, o'ziga xosligini yo'qotmagan holda, yangicha shaklga kirib bormoqda. Madaniy xilma-xillikning kamayishi dunyo bo'ylab yirik madaniyatlarning ommalashishi tufayli kichik milliy madaniyatlar o'z mavqeini yo'qotish xavfi ostida qolmoqda

Globallashuv jarayonlari mafkuraviy sohada ham chuqur o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Turli mafkuralarning kurashi kuchayib, davlatlar va jamiyatlar o'rtasida g'oyaviy raqobat tobora keskinlashib bormoqda. Bunda quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda. Milliy mafkuralarning o'zgarishi globallashuv sharoitida davlatlar o'z mafkuraviy asoslarini mustahkamlashga intilmoqda, shu bilan birga, yangi mafkuraviy yo'nalishlar paydo bo'layotganini kuzatish mumkin. G'arb va Sharq o'rtasidagi mafkuraviy qarama-qarshilik demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va erkinlik masalalarida G'arb va Sharq mamlakatlari o'rtasida mafkuraviy ziddiyatlar davom etmoqda. Mafkuraviy ta'sir vositalarining o'zgarishi ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va internet orqali mafkuraviy targ'ibot kuchayib, an'anaviy mafkuraviy vositalar o'z o'rnini raqamli kommunikatsiya platformalariga bo'shatib bermoqda.

Globallashuv sharoitida axborot maydoni tobora kengayib, uning jahon miqyosidagi ta'siri ortib bormoqda. Axborot oqimining ortishi nafaqat ijobiy natijalarga olib kelmoqda, balki bir qator xavf-xatarlarni ham yuzaga chiqarmoqda.

Axborot urushlari va dezinformatsiya davlatlar va turli guruhlar tomonidan raqiblarni zaiflashtirish yoki jamiyatda ijtimoiy beqarorlik yaratish maqsadida dezinformatsiya va axborot manipulyatsiyasi ishlatilmoqda. Axborotning nazorat qilinishi va senzura ayrim davlatlar global axborot maydonida o'z ta'sirini kuchaytirish uchun axborot oqimini cheklash yoki nazorat qilish yo'llaridan foydalanmoqda. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali axborot nazorati sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va algoritmlar vositasida axborot oqimini boshqarish va yo'naltirish imkoniyatlari kengaymoqda. Global ijtimoiy o'zgarishlar jamiyatning barcha sohalariga, jumladan, madaniyat, mafkura va axborot maydoniga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlarini to'g'ri baholash va ularga mos ravishda strategik yondashuv ishlab chiqish milliy manfaatlarini himoya qilish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, axborot xavfsizligi va mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash hozirgi sharoitda ustuvor masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Globallashuv murakkab va ziddiyatlarga boy jarayon bo'lishiga qaramay, uning ijtimoiy hayot sohalariga ta'sirini tizimli tarzda o'rganish imkoni mavjud. Ilmiy tadqiqotlarda globallashuvni ma'lum bir yo'nalishlarga ajratib tahlil qilish muammoni mantiqiy ochib berishga hamda ijtimoiy hayot sohalarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan,

globallashuv jarayonlarining ijtimoiy hayotga ta'sirini quyidagi asosiy yo'nalishlarda ko'rib chiqish mumkin:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi globallashuv jarayonlari.
2. Ekologiya sohasidagi globallashuv.
3. Ilmiy-texnika sohasidagi globallashuv.
4. Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan global aloqalar.
5. Ijtimoiy-siyosiy sohadagi globallashuv.
6. Demografiya sohasidagi globallashuv jarayonlari.
7. Migratsiya jarayonlari.
8. Huquq va inson huquqlari sohasidagi globallashuv.

Eng avvalo shuni ta'kidlash zarurki, bugungi kunda globallashuv ta'sir etmagan ijtimoiy hayot sohasi deyarli mavjud emas. Demak, globallashuv jarayonlarini to'liq qamrab olish hatto eng yirik tadqiqot doirasida ham mushkuldir. Biroq yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlarni tahlil qilish orqali bu jarayonning asosiy xususiyatlarini anglash mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmiga qadar mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni o'z ichki resurslaridan samarali foydalanish, jamiyat va davlatni oqilona boshqarish hamda fuqarolarning mehnat va burchlariga mas'uliyatli munosabati natijasi sifatida baholar edi. Ushbu davrda mamlakatlarning ichki resurslari va iqtisodiy salohiyatiga asoslangan rivojlanishga katta e'tibor qaratilgan.

Biroq, Ikkinchi jahon urushi tugashi va ayniqsa Yevropada integratsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida lokal rivojlanishdan global rivojlanishga o'tish ehtiyoji paydo bo'ldi. B. Umarov ta'kidlaganidek:

“Globallashuv davriga kelib, taraqqiyotga bo'lgan qarashlar o'zgardi. Voqea-hodisalarni makon va zamondan ajratmagan holda, sinxron talqin qilish tamoyili shakllandi. Nazariy jihatdan qaralsa, tarixiy taraqqiyot xususiyatlaridan qat'i nazar, xalqaro mehnat taqsimoti tizimiga uyg'unlashayotgan, xorijiy sarmoyalarni izchil jalb etayotgan hamda zamonaviy texnologiyalar sari intilayotgan har qanday mamlakat uchun globallashuv natijasida iqtisodiy afzalliklardan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi” [1].

Globallashuvning iqtisodiy jihat, birinchi navbatda, bozor iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy aloqalar orqali namoyon bo'ladi. XX asr boshlarida Germaniya va Angliya kabi davlatlar boshqa mamlakatlar iqtisodiyotiga faol aralashgani bu jarayonning tarixiy ildizlari borligini ko'rsatadi. Masalan, Angliya milliy daromadining 52%i, Germaniyaniki esa 38%i tashqi savdo va iqtisodiy aloqalarga sarflangan[2].

Bu shuni anglatadiki, globallashuv jarayonida iqtisodiy taraqqiyot va xalqaro mehnat taqsimoti asosiy mexanizmlardan biri bo'lib qolmoqda.

Globallashuv – ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalariga ta'sir etuvchi keng qamrovli va ziddiyatli jarayon. Uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy oqibatlarini o'rganish uchun tizimli yondashuv talab qilinadi. Shu sababli globallashuvning ta'sirini muayyan yo'nalishlar bo'yicha klassifikatsiya qilish uning ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSh "Marshal rejasi" doirasida Yevropa davlatlariga milliy daromadining 3%ini sarfladi. Garchi bu ko'rsatkich hozirgi kunda 0,1%ga tushib qolgan bo'lsa-da, ushbu yordam Yevropa iqtisodiyotini tiklash, bozor munosabatlarini shakllantirish va modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirishda muhim o'rin tutdi.

Globallashuv milliy davlatlar iqtisodiyotiga o'z talablarini qo'yadi, jumladan:

- ichki bozorlarning ochiq bo'lishi,
- yangi texnologiyalarni joriy etish,
- talab va ehtiyojlar qonuniga amal qilish,
- mehnatga yarasha haq olish tizimini shakllantirish,
- mahsulotlarni xalqaro standartlarga mos ravishda ishlab chiqarish,
- transmilliy korporatsiyalarning erkin faoliyat yuritishi,
- investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash,
- valyutalarning erkin muomalada bo'lishi,
- bozor iqtisodiyotida erkin raqobatni ta'minlash,
- jahon bozorida faol ishtirok etish.

Bu talablarning asosiy sub'ektlari bugungi kunda "global uchlik" – Shimoliy Amerika, Yevropa Ittifoqi va Sharqiy-G'arbiy Osiyo ittifoqlari bo'lib chiqmoqda. Ushbu hududlarda dunyo iqtisodiyotining asosiy resurslari, texnologiyalari va moliyaviy markazlari joylashgan.

Masalan, Yevropa Ittifoqi ta'sirida tashkil etilgan Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (2001) hududida dunyo aholisining o'ndan biri yashaydi, ammo ular jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning uchdan ikki qismini ta'minlaydi. Shuningdek, xalqaro bank tizimi, kapital ishlab chiqarish bozori ham ushbu hudud nazoratida. Dunyodagi ilmiy-texnika kashfiyotlari va yangi texnologiyalarning 70% ham aynan shu hududlarda yaratiladi.

Globallashuv jarayonlarini targ'ib qiluvchi iqtisodiy nazariyalardan biri – liberalizmdir. Kapitalizm tarafdorlari erkin iqtisodiyot, bozor munosabatlarini liberallashtirish, investitsiyalar va raqobat erkinligi orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkinligini ta'kidlaydilar.

Biroq, liberalizm tamoyillari hamma holatlarda ham ijobiy natija bermaydi. Uning global taraqqiyotga xizmat qilishidan ko'ra, aksincha, ma'muriy va iqtisodiy zo'ravonliklar, boy va kambag'al davlatlar o'rtasidagi tafovutni kuchaytirishga sabab bo'layotganini kuzatish mumkin.

Shu sababli, B. Umarovning “Liberalizm – globallashuv jarayonining nazariy poydevori” degan fikriga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Liberalizm – globallashuvning faqatgina bir tomoni bo‘lib, uning ijobiy yoki salbiy oqibatlari jamiyatning turli ijtimoiy-iqtisodiy holatlariga qarab o‘zgarishi mumkin[3].

Globallashuv milliy iqtisodiyotlarga ta’sir ko‘rsatayotgan eng muhim jarayonlardan biridir. U davlatlar iqtisodiyoti uchun bir qator imkoniyatlarni yaratsa-da, shu bilan birga, tengsizlik, adolatsizlik va iqtisodiy resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishi muammosini ham keltirib chiqaradi.

Shuning uchun global iqtisodiy tizimda adolatli rivojlanish modelini yaratish, boyliklarni tengroq taqsimlash va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Amerikalik tadqiqotchi T. Fridman globallashuvni “sovuq urush” o‘rniga kelgan “yangi tizim” deb atagan edi[4]. Haqiqatdan ham, “sovuq urush”da g‘olib chiqqan AQSh boshchiligidagi kapitalizm bozor iqtisodiyoti orqali dunyoga o‘z tushunchalarini va qadriyatlarini targ‘ib etmoqda.

Ushbu jarayon moliyaviy markazlar – Uoll-strit, Gonkong, London va Frankfurt orqali amalga oshirilmoqda. Ular nafaqat dunyo bozoriga, balki milliy davlatlarning siyosiy tuzumiga ham ta’sir o‘tkazmoqda. Bu holat suveren davlatlarning ichki ishlariga aralashish hamda g‘arbona qadriyatlarni singdirish orqali ommaviy madaniyat va bir xil tasavvurlar yaratishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

Globallashuv jarayoni natijasida milliy madaniyatlar, an’anaviy turmush tarzi va mentalitetlar plyuralizmi kamayishi mumkin. Bu esa dunyo taraqqiyotining rang-barangligiga barham berishi, natijada madaniy yaksonlashuv yuz berishi ehtimolini kuchaytiradi. Ushbu xavotirlar aksilgloballashuv harakatlari paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Globallashuvning ekologiya sohasida ham ijobiy va salbiy jihatlari mavjud.

Ijobiy jihatlari:

- Ekologik muammolar faqat bir davlat yoki mintaqaga taalluqli emas, balki butun insoniyat va kelajak avlodlar uchun umumiy masala hisoblanadi.
- BMT, xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar tabiatni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan qator loyihalarni amalga oshirmoqda.
- Zararli moddalarni ishlab chiqarish va tarqatishni taqiqlash, ekologik xavfli korxonalarni yopish bo‘yicha xalqaro kelishuvlar qabul qilinmoqda.

Bu yo‘nalishda 1997 yilda qabul qilingan “Kioto protokoli”, BMT qoshidagi Atrof-muhit va taraqqiyot xalqaro komissiyasi va Yevropa qit’asida faoliyat yuritayotgan yuzdan ortiq ekologik tashkilotlar misol bo‘la oladi. Ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tabiat bilan uyg‘unlashtirish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqmoqda[5].

Biroq, dunyodagi ekologik vaziyat hamon eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Global ekologik muammolar O‘zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik muammolardan biri – Orol dengizi inqirozi bo‘lib, bu nafaqat iqtisodiy va ekologik, balki ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqardi.

Shuning uchun ham O‘zbekistonda ekologik muammolarni hal etish, tabiatni muhofaza qilish va ekologik xavflarni kamaytirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Globallashuv – insoniyat taraqqiyotining uzviy qismi bo‘lib, u iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va ekologiya sohalarida jiddiy ta’sir kuchiga ega.

- Iqtisodiy globallashuv milliy davlatlarning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

- Madaniy sohadagi globallashuv milliy madaniyatlar va mentalitetlarning xilma-xilligini kamaytirib, ommaviy g‘arbona madaniyatni shakllantirmoqda.

- Ekologik globallashuv bir tomondan ekologik himoya mexanizmlarini kuchaytirsas, ikkinchi tomondan, ayrim mintaqalarda ekologik xavflarni orttirmoqda.

O‘zbekiston uchun globallashuv jarayonlaridan samarali foydalanish, milliy manfaatlarni himoya qilish va ekologik muammolarni bartaraf etish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Taniqli ekolog Lin Uayt (kichik) fikriga ko‘ra, ekologik inqirozlar tarixi ancha oldin boshlangan. U bu haqda shunday yozadi:

“Ekologik o‘zgarishlar tarixi shunday boshlang‘ich holdaki, biz ular haqida, o‘tmishda nimalar bo‘lgani va ular qanday natijalarga olib kelganini juda kam bilamiz”[6].

Olim inson faoliyatining ekologik oqibatlariga misol sifatida 1627 yili Yevropada zubrlarning yo‘q qilinishini, gollandiyaliklarning Shimoliy dengiz qirg‘oqlarini kengaytirishini keltiradi. Agar ushbu yondashuv asosida o‘tmishni tahlil qiladigan bo‘lsak, qadimiy imperiyalarning barpo etilishi, urushlar va qit‘alarni o‘zlashtirish jarayonlari tabiatga juda katta zarar keltirganini ko‘rish mumkin. Bu vayrongarchilik keyingi asrlarda yanada kuchaydi.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, har yili:

- 10,1 milliard tonna kislorod turli yoqilg‘ilarni yoqish natijasida sarflanmoqda;
- Qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarning 70% o‘zlashtirilgan;
- Chuchuk suvlarning 20% foydalanib bo‘lingan;
- O‘rmonlar maydoni kamayib, cho‘l hududlari kengaymoqda;
- Havo harorati yildan-yilga ortib bormoqda.

Planetaning taqdiri haqida ekologlar allaqachon ogohlantirgan. Xususan, XX asrda ekologik muammolar jiddiy ko‘tarilgan bo‘lsa, XXI asrga kelib atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning tugashi va ekotizimdagi ekologik aloqalarning buzilishi global muammoga aylandi[7].

Ekolog-olimlar ogohlantiradi: “Agar insoniyat hozirgi taraqqiyot yo‘lidan davom etsa, uning halokati ikki-uch avloddan so‘ng yuz berishi ehtimoldan xoli emas”.

Shu sababli mutaxassislar ekologik huquqni targ‘ib qilish, xo‘jalik sub’ektlari ongida ushbu huquqiy normalarni shakllantirish masalasini dolzarb vazifa sifatida ko‘rsatmoqdalar.

Ko‘plab mutaxassislar global ekologik inqirozlarning ildizlarini XVII asrda boshlangan ilmiy-texnika revolyusiyasiga borib taqaydilar.

Bugun esa bular oddiy holatga aylangan. Ilmiy-texnika revolyusiyasining bu mo‘jizalari hech kimni ajablantirmaydi.

1. Ekologik inqirozlar tarixi

- Ilmiy-texnika taraqqiyoti ekologik muammolarni chuqurlashtirdi.
- Tabiatga nisbatan buzg‘unchi munosabat ekologik halokatga olib kelishi mumkin.

2. Global integratsiya va texnika taraqqiyoti

- Ilmiy taraqqiyot xalqlar va qit‘alarni bir-biriga bog‘ladi.
- Radio, televidenie, internet dunyo miqyosidagi axborot almashinuvini tezlashtirdi.
- Bugungi kunda dunyo informatika va raqamli texnologiyalar davriga kirdi.

3. Yangi davr muammolari

- Ekologik barqarorlik va texnik taraqqiyot muvozanati ta‘minlanishi lozim.
- Ilmiy taraqqiyot insonlar uchun qulay shart-sharoit yaratish bilan birga, tabiatga ta‘sirini kamaytirishga qaratilgan bo‘lishi zarur.

Buning uchun jahon hamjamiyati ekologik huquqni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan xalqaro dasturlarni kuchaytirish va resurslardan oqilona foydalanish strategiyasini ishlab chiqishi kerak.

Dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash bugungi kunda ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Garchi “Sovuq urush” tugagan va global miqyosdagi ideologik to‘qnashuvlar pasaygan bo‘lsa-da, harbiy tahdidlar hali ham saqlanib qolgan. Jahon siyosiy maydonidagi keskinlik va qurollanish poygasining kuchayishi bu muammoni yanada chuqurlashtirmoqda.

Hozirgi paytda yadro qurollari global xavfsizlik uchun eng katta tahdidlardan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, jahonda 13 000 dan ortiq yadro quroli mavjud bo‘lib, ularning salmoqli qismi strategik maqsadlarda ishlatilishi mumkin. Ushbu qurollar inson sivilizatsiyasiga ulkan ziyon yetkazish qudratiga ega.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin yadro qurollarining tarqalishi yangi xavflarni keltirib chiqardi. Bir qator sobiq ittifoq respublikalarida qolib ketgan harbiy-strategik qurollar xalqaro hamjamiyatning tashvishini oshirdi. Ba‘zi noqonuniy guruhlar va davlatlar ushbu qurollarni qo‘lga kiritishga harakat qilgan holatlar ham kuzatilgan. Shu bois, yadro qurollarining tarqalishini oldini olish bo‘yicha xalqaro miqyosda jiddiy choralar ko‘rilmoqda.

Global xavfsizlik muammolari Osiyo-Tinch okeani mintaqasida ham o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazmoqda. Hozirgi kunda bu hududdagi davlatlar mudofaa sohasiga katta mablag' sarflab, qurollanish jarayonini jadallashtirmoqda. Harbiy texnologiyalarning rivojlanishi va yangi qurol turlarining paydo bo'lishi mintaqadagi kuchlar muvozanatiga jiddiy ta'sir o'tkazayotgan omillardan biridir[8].

Shimoliy Koreyaning yadro quroli va raketa dasturlarini kengaytirishga bo'lgan intilishi mintaqada xavfli vaziyatni keltirib chiqarmoqda. Bu esa AQSh va uning ittifoqchilari tomonidan Osiyo-Tinch okeanidagi harbiy kuchlarni yanada oshirishga turtki bermoqda. Hozirda ushbu hududda joylashgan harbiy kemalar, havo kuchlari va harbiy infratuzilmalar soni yildan-yilga oshib bormoqda.

Hozirgi sharoitda xalqaro hamjamiyat tinchlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida diplomatik muzokaralarni kuchaytirishga e'tibor qaratmoqda. Yadro qurollarining tarqalishiga qarshi xalqaro kelishuvlar, harbiy sohadagi nazorat mexanizmlari va diplomatik vositalar tinchlikni ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, NATO, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha turli tashabbuslarni ilgari surmoqda. Bugungi kunda eng dolzarb vazifa — qurollanish poygasini cheklash, yadro qurollarini kamaytirish va xalqaro siyosatda tinchlikni ta'minlashga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqishdir[9].

Jahon hamjamiyati barqaror va xavfsiz kelajakni shakllantirish uchun yangicha fikrlash va o'zaro hamkorlikka asoslangan siyosatni amalga oshirish zarurligini anglamoqda. Faqat shu yo'l bilan insoniyat global tahdidlarni oldini olib, tinch va barqaror jamiyat qurishga erishishi mumkin.

Globallashuvning ijtimoiy-siyosiy jabhadagi ta'siri murakkab va ko'p qirrali bo'lib, turli qarashlar va bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ayrim olimlar uning ijobiy tomonlarini ta'kidlasalar, boshqalar uning salbiy oqibatlaridan ogohlantiradilar. Chunki global muammolarni hal etishga to'g'ri kelganida "Siyosiy inersiya kuchlari mudom millatni tor hududchilikning beaded tubiga sudrab ketadi"[10].

Masalan, ayrim mutaxassislar globallashuv va integratsiya jarayonlari asosan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar manfaatiga xizmat qilayotganini ta'kidlaydilar. Bu holat ilg'or sanoatdan tortib, mehnat bozorlaridagi yollanma ishchi kuchlarining noteng taqsimotigacha bo'lgan sohalarda kuzatilishi mumkin.

Siyosiy institutlarni jahon miqyosida birlashtirishga urinishlar tarixan mavjud bo'lib, bugungi kunda ham davom etmoqda. Siyosiy institutlarni jahon miqyosida birlashtirishga harakat qadimdan mavjud. Masalan, Doro I va Aleksandr Makedonskiyning harbiy hatti-harakatlarini eslang. O'z paytida Platon ham "ideal davlat" g'oyasini ilgari surgan va insoniyat ushbu "oltin davr" ga qaytadi deb hisoblagan[11]. Sharq mutafakkiri Shri Adrobindo esa insoniyat ixtiyoriy

tarzda yoki turli nizolar, urushlar, inqirozlar tazyiqida “Umumjahon davlatini tashkil etadilar”[12] -deb yozadi. F. Fukuyama va K. Omae kabi tadqiqotchilar ham shunday g‘oyalarni ilgari surishgan.

Globallashuvning iqtisodiy va axborotlashuv sohalaridagi rivojlanishi siyosiy institutlar va davlatlarni umumjahon tushunchalarga muvofiq ish yuritishga majbur qilmoqda. Bu jarayon ayrim davlatlarning milliy manfaatlarini saqlab qolishga urinishlariga qaramay, ularni umumjahon manfaatlariga xizmat qilishga olib keladi. Natijada, global davlat, umumjahon hukumati yoki umumjahon fuqarolik jamiyati kabi tuzilmalar paydo bo‘lishi mumkin.

Globallashuv siyosiy partiyalar va nodavlat tashkilotlar faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar rivojlangan demokratik davlatlardagi kabi o‘z vazifalarini bajarishlari lozimligi ta’kidlanadi. Biroq, partiyalarimizda lokal va an’anaviy tafakkur tarzi barqaror qolmoqda, ya’ni ular globalizmga ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va mafkuraviy sohalarida metodologiya sifatida qaramaydilar. K. Rabbimovning «Fuqarolik jamiyati» jurnalida chop ettirgan maqolasi aynan ushbu muammoga bag‘ishlangan. Globallashuv sharoitida O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar rolini tahlil qilar ekan u yozadi: “Bizdagi siyosiy partiyalar rivojlangan demokratik davlatlardagi kabi o‘zlarining klassik vazifalarini bajarishni yo‘lga qo‘yishlari lozimdir”[13].

Demografiya va migratsiya sohalaridagi o‘zgarishlar ham globallashuvning muhim jihatlaridan biridir. Bugungi kunda globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari barcha sohalarida, barqaror taraqqiyot yo‘lida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lib bormoqda. Demografiya va migratsiya sohalarida kechayotgan o‘zgarishlarni kuzatgan P.J.Byukenen: “ular chuqurlashayotgan inqirozlarni boshidan kechirayotgan hozirgi dunyoni oxir natijada o‘limga olib kelishi mumkin. Agar bu o‘zgarishlar shu darajada va shu ko‘lamda ketadigan bo‘lsa oq tanlilar o‘z vatanlaridan judo bo‘ladilar”[14] - deb yozadi. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-siyosiy sohadagi globallashuv murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uning ijobiy va salbiy tomonlarini chuqur o‘rganish va tahlil qilish zarur.

Yer kurrasi aholisi soni 1804-yilda 1 milliardga yetgan bo‘lsa, 1927-yilda 2 milliardga, 1960-yilda 3 milliardga, 2000-yilda esa 6 milliardga, 2011-yil 31-oktabrda esa 7 milliardga yetdi. 2022-yil 15-noyabr holatiga ko‘ra, dunyo aholisi 8 milliarddan oshdi.

Aholi sonining o‘shishi asosan kunlik daromadi 2 dollardan oshmaydigan mamlakatlarga to‘g‘ri kelmoqda, boy, rivojlangan davlatlarda yesa tug‘ilish darajasi yil sayin kamayib bormoqda[15].

Aholining boy, rivojlangan davlatlarga ko‘chishi global hodisaga aylangan. Osiyo qit’asidan har yili millionlab kishi Yevropa davlatlariga ko‘chmoqda. Immigrantlarning katta qismi AQShga ko‘chib bormoqda. 2050-yilga kelib AQShning tub aholisi bilan immigrantlar o‘rtasida son

jihatidan tenglik, ko‘p o‘tmay esa oq tanlilarning soni kamayishi kutilmoqda[16]. Masalan, 2000–2050-yillar oralig‘ida AQShda ispan tilida so‘zlashuvchilar soni 10% dan 25% ga, osiyoliklar soni 6% dan 11% ga, afro-amerikaliklar 9% dan 16% ga, Janubiy Amerikadan ko‘chib keluvchilar 15% ga o‘sishi, oq tanlilar soni esa 75% dan 53% ga kamayishi bashorat qilinmoqda[17].

Ko‘rinib turibdiki, demografik portlash va migratsiya oqimi insoniyat oldiga ko‘plab muammolarni qo‘ymoqda. Buning uchun insoniyat turmush tarzi masalalarini hal yetishi zarur. Qashshoqlik, zo‘rg‘a kun ko‘rish, ishsizlik kishilarni o‘z vatanlarini tark etishga majbur qilmoqda. Arzon ish kuchidan foydalanish esa immigrantlarning huquqlarini buzishga olib kelmoqda. Uning oqibatida bir davlatlar yanada boyib, boshqa davlatlar ishchi kuchidan, intellektual salohiyatdan mahrum bo‘lib, o‘zining ichki rivojlanishini ta‘minlay olmayapti.

Xulosa qilib aytganda inson huquqlarini himoya qilish muammolarini globallashtirish nuqtai nazaridan chuqurroq o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortishi ushbu mavzunung murakkabligi va xilma-xilligini ochib berishni, shuningdek, uning mohiyati va ijtimoiy ildizlarini tadqiq etishni talab qiladi. Globallashtirish jarayonida “inson huquqlari” atamasining ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatidagi mohiyatini aniqlash, shu boradagi amaliy va nazariy qarashlarni falsafiy jihatdan umumlashtirish zarur. Shu nuqtai nazardan, davlatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ajralmas qismi bo‘lgan hozirgi davrda inson huquqlariga oid bilimlarni tizimlashtirish uchun ushbu huquqlarning tabiati, ularning siyosat va axloq bilan o‘zaro munosabatini e‘tiborga olish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. – Тошкент: “Маънавият”, 2006 – Б. 7.
2. Глобалистика. Международный междисциплинарный энциклопедический словарь. – Москва: Санкт-Петербург, Нью-Йорк, 2006. – С.164; Global Studies Encyclopedic Dictionary / ed. by A.N. Chumakov, I.I. Mazour, W.C. Gay. Amsterdam; New York, NY: Editions Rodopi B. V., 2014. – P. 79 - 80.
3. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. – Тошкент: «Маънавият», 2006. – Б. 29.
4. Глобалистика. Международный междисциплинарный энциклопедический словарь. – Москва: Санкт-Петербург, Нью-Йорк, 2006. – С.164.
5. Мировая экономика и международные отношения, 2002, №2. – С. 17-19.
6. Уайт Л. Исторические корни нашего экологического кризиса // Глобальные проблемы и общечеловеческие ценности. – Москва: “Прогресс”, 1990. – С.189.
7. Экология ҳукуки. – Тошкент: “Адабиёт жамғармаси” нашриёти, 2001. – Б. 3.
8. Федотов В. П. Теоретические и методологические вопросы обеспечения безопасности в АТР. О возможных моделях региональной безопасности в Азиатско-Тихоокеанском регионе // МЭиМО, 2001. MS. –С. 42-49.

9. Балувев Д. Г. О национальных интересах России и ее место в международных отношениях // Вестник Фонда РОПЦ, №2. 1996. – С. 9.
- 10 Қаранг: Хиггинс Р. Седьмой враг. Человеческий фактор в глобальном кризисе // Глобальные проблемы и общечеловеческие ценности. – Москва: «Прогресс», 1990. – С. 28.
11. Қаранг: Платон. Сочинения в трех томах. Т. 3.Ч.1. – Москва: «Мысл», 1971. – С. 225.
12. Ауробиндо Шри. Идеал человеческого единства. – Санкт-Петербург, «МИРРА», 1998. – С. 460.
13. Раббимов К. Сиёсий партиялар: глобаллашув шароитларида локал фикрлаш // Фуқаролик жамияти. 2005. 3-сон. – Б. 28.
14. Бьюкенен П.Ж. Ғарбнинг ҳалокати. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2007. – Б. 22 - 23.
15. Mc. Kilben B. The Fortune of Population // Atlantic Monthly, May, 1988. – P. 78.; <https://ru.wikipedia.org/wiki/Население> _ Земли.
16. Population Progection of the United States: 1991 to 2050. Wash. 1992.
17. Wold Economic and Social Survey 1995. – New York, 1996. – P. 147.